



## MEDIATA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SHART - SHAROITLARI

*Xolmatov Pardaboy Qoraboevich-Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida professor v.b. pedagogika fanlari nomzodi. E-mail: pardaboyxolmatov@gmail.com.*

**Аннотация.** Ushbu maqolada mediata'lim texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning shart - sharoitlariga oid fikr, mulohazalar keltirilgan.

**Тayanch so'zlar.** Media savodxonlik, media ta'minoti, Web-brauzerlar, mediata'lim texnologiya, ma'naviy tarbiya, xususiy, lokal tarbiya, ma'naviyat, ma'naviy olamini boyitish ma'naviyatini shakllantirish.

**Аннотация.** В статье представлены идеи и соображения об условиях формирования духовности учащихся начальной школы на основе медиаобразовательных технологий.

**Ключевые слова:** Медиаграмотность, медиаобеспечение, веб-браузеры, медиаобразовательные технологии, духовное образование, частное, локальное образование, духовность, обогащение духовного мира, формирование духовности.

**Abstract.** This article presents ideas and considerations on the conditions for the formation of the spirituality of primary school students based on media education technology.



**Keywords.** Media literacy, media provision, Web browsers, media education technology, spiritual education, private, local education, spirituality, enrichment of the spiritual world, formation of spirituality.

**KIRISH.** Jahon ta'lim muassasalarida mediatilim texnologiyalaridan foydalanib kichik yoshdagi o'quvchilarni ma'naviy kompetentligini shakllantirish, ijodiy kommunikativ layoqatining natijaviyligini ta'minlashning kreativ texnologiyalari ta'lim jarayoniga tadbiiq etilmoq. Jumladan bir qancha rivojlangan davlatlarda AQSh, Frantsiya, Xitoy, Yaponiya, Rossiya, Hindistonda ta'lim va tarbiya jarayonlarini konstruksiyalash asosida optimallashtirish, gumanizatsiyalash, yangi ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish, ta'lim paradigmalari va texnologiyalarining zamonaviy amaliy integratsiyalarini loyihalash, mediatexnologiyalarning kontseptuallik, sistemalilik, boshqaruvchanlik, effektivlik, qayta tiklash talablariga moslashtirish bo'yicha zarur loyihalarni amaliyotga tadbiiqiga oid ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muammolarida zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonlarini axboratlashtirishni rivojlantirish, axboratlarni qabul qilishning pedagogik va psixologik asoslarini hamda ta'limni axboratlashtirish sharoitida o'quvchilarning sog'ligini himoya etishni takomillashtirish, masofaviy ta'limni amalga oshirish, hozirgi mediata'lim texnologiyalarining didaktik va tarbiyaviy potentsialini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Darhaqiqat o'quvchilarning media savodxonligini va ta'lim muassasalarining standart media ta'minotini rivojlantirish, Web-brauzerlar, ilmiy matn prosessorlari bilan ishlash kompetentligini takomillashtirish, mediata'lim texnologiyalari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasini mediatexnologiyalar asosida shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy materiallarni



tizimlashtirish, umumiy, xususiy va lokal tarbiyaviy texnologiyalarni shakllantirish, o'quvchilarning psixologik rivojlanishining biogen, sosiogen, psixogen texnologiyalarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga tadbiiq etishning me'yoriy asoslari yaratildi. Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'anaviy qadriyatlarga suyanish" muhim ustivor vazifa etib belgilandi. Natijada mediata'lim texnologiyalarini loyihalash ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish va konstruktsiyalash imkoniyatlari yanada rivojlanadi .


**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI.** Respublikamizda A.Abduqodirov, J.Yo'ldoshev, M.Lutfullaev A.Nurmanov, N.Tayloqov, N.Begmatova, N.Usmanov, N.Qushvaqto'v, N.Rustamova, O.Musurmonova, U. Mahkamov, U.Begimqulov, Sh.Mardonov, E.Qosimovalarning tadqiqotlarida ma'naviyat asoslari, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda pedagogik va axborot-kommunikasion texnologiyalar hamda ulardan foydalanish omillari o.Musurmonova umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalashda milliy g'oyaga asoslanish, M.Quronov shaxsni milliy tarbiyalashda ma'naviyatning o'rni masalalarini tadqiq etishgan.Xorijlik olimlardan K.Mets (Germaniya), B.Baxmeyor (Avstriya), E.Jey (Buyuk Britaniya) Bezelget, K. Kara-Murza, Herbert Marshall, A.V Fedorov, A.V. Kirillova, A.Yu. Kolesnichenko, A.A.Jurin, A.A.Novikova, B.Spichkin, V.V. Nedbay , V.L. Goncharuk, D.V.Zalagaev, I.A. Fateeva, I.V.Chelischeva, M.V.Jijina, M.G.Dorofeeva, M.N.Fominova, S.S.Fedorsova, S.S.Buxova, T.V. Panarina, T.V.Xarlampeva, F.A.Stolbnikova, Yu.N.Egorova, Yu.M.Usovlar mediata'lim, mediatarbiya, mediadidaktika, mediapedagogika singari masalalar bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borishgan.O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishning vazifalari, mazmun-mohiyati va uning strategik masalalaridan biri hisoblanib, bugungi kunda mamlakatimizning kelajagi har jihatdan barkamol va keng dunyoqarashli sog'lom avlodni tarbiyalashga bog'liqdir. O'z Vataniga, xalqiga,



istiqlolga, buyuk ajdodlaridan meros bo'lib kelayotgan moddiy va manaviy boyliklariga sadoqatli, erkin va mustaqil fikrlaydigan komil insonlarni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun yurtimizda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmogda. "Ma'naviyat" – bu boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy olamini va estetik tuyg'usini o'stirish, ma'naviy olamini shakllantirish demakdir. Ma'naviyat orqali bola o'z ongi va tuyg'usini boyitib borar ekan, xuddi o'ziga estetik qadriyatlarni jamlaganday bo'ladi, ularni o'zining kasb faoliyatiga tatbiq etishni maqsad qilib qo'yadi". Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish bilan quyidagilarga erishish mumkin:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarga ma'naviyat haqida tushuncha berish;
- o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish va tushunchalarini shakllantirish ;
- o'quvchilarda turli xil tadbirlar asosida ma'naviyatini shakllantirib borish;
- o'quvchilarni mustaqil mehnat qilishga ko'niktirish.

Bularni amalga oshirish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarning ongi, dunyoqarashi va ma'naviyatini dastlabki bosqichda shakllantirishga kirishiladi. Bu esa bevosita ma'naviyat targ'iboti bilan bog'liq hodisa bolib ma'naviyatning sub'ekti aynan quyidagilardir:



1 - shakl. Boshlang'ich sinf o'quvchisining ma'naviyat sub'ekti.



Boshlang'ich sinf o'quvchisining ongida milliy g'oya assosida ma'naviyat tushunchalarini shakllantirish, uning dunyoqarashida sog'lom g'oyalar va bilimga havasning ortib borishni tarkib toptirish hamda axloqida esa milliy odob-me'yorlari rivojlantiriladi. Buning uchun mamlakatimizda foydalanish mumkin bo'lgan ilg'or pedagogik tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar etarli darajada mavjud.

Boshlang'ich sinfda mediata'lim texnologiyasini egallashga asoslangan ilg'or ta'lim tizimlarini tadbiiq etishga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bunga zamonaviy ta'lim tizimida imkoniyatlar bor, chunki hozirda mediata'lim texnologiyasini o'rganish hamda ulardan amalda foydalanishga oid bilim, ko'nikma va malakalar uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich sinflarda ta'lim oluvchilarga taqdim etilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviyatini shakllantirish imkoniyatlarini asosiylari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim etarli darajada infratuzilmaga ega;
- bu tizimda zamonaviy bilim va malakali pedagog kadrlar faoliyat yuritmoqda;
- boshlang'ich sinflarda zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar (masalan, mediata'lim texnologiyasi), ko'rgazmali qurollar yaratish hamda ularni ishlab chiqish bilan ta'minlangandir. tezkor ma'lumotlar axborot va kompyuterlar manbai bo'lgan holda, voyaga etib kelayotgan shaxs ongi, dunyoqarashi va axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirishda mediata'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatishlar va qisqa muddatli sinovlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarda mazkur masalaning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Ijobiy jihatlari:

- kompyuter boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'ziga tez jalb qiladi;



- boshlang'ich sinf o'quvchisi kompyuter bilan qiziqib munosabatga kirishadi;
- boshlang'ich sinf o'quvchisida mustaqil harakat qilish va fikrlash tarzi tezlashadi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida diqqatni bir joyga joylash holatlari yuzaga keladi ,
- boshlang'ich sinflarda kompyuter darslari tashkil etildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish uchun muhim elementlardir bu vaqtda, quyidagi salbiy jihatlar kuzatildi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarda kompyuterga bog'lanib qolish hissi uyg'onadi;
- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kompyuter yonida ko'proq bo'lish istagi paydo bo'ladi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarda daftarga yozish, chizish va hisoblash tuyg'usi pasayadi;
- bolada ta'lim muassasasidan tashqari boshqa joylarda kompyuterga intilish yuzaga keladi va hokazo.

Muayyan ilmiy va pedagogik tajribalar asosida o'z harakatlarning ijobiy jihatlarini ko'paytirish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Vu jarayonda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

1. Bolaga kompyuterni to'g'ri tanishtirish. Bu masalada mashg'ulot olib boradigan o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarda kompyuterning ijobiy va salbiy jihatlari haqida tushuncha uyg'otish;
- o'quvchilarni kompyuter bilan muayyan vaqtlarda bo'lishga odatlantirish;



- boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompyuter texnologiyalari ta'lim-tarbiya vositasi ekanligi to'g'risida tasavvur uyg'otish;

-o'quvchilarini kompyuter bilan ishlash rejasiga rioya qilishga ko'niktirish

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kompyuterda ta'lim-tarbiya berish. Darsni tashkil etadigan o'qituvchi kompyuterda quyidagilarga diqqat qilishi lozim:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarni kompyuterda yozish, chizish va hisoblashga o'rgatish;

- o'quvchilarni kompyuterda qunt va diqqat bilan ishlashga ko'niktirish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarni kompyuterdagi tasvirlarni hikoya qilib berishga o'rgatish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuterning keng imkoniyatlari bilan etarli darajada tanishtirish va hokazo.

3.Kompyuterda ta'limiy rolikli o'yinlarni tashkil qilish. Mazkur masalada o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi darkor:

-kompyuterga yozish, chizish va hisoblashdan saboq beruvchi rolikli tasvirlarni joylashtirish;

-qisqa muddatli ta'limiy filmlarni kompyuterga kiritish;

-kompyuterga kiritilgan turli roliklarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga undovchi savollarning ko'proq bo'lishini ta'minlash;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarning kompyuter bilan ishlayotganida u bilan izchil muloqatda bo'lib turishi va hokazo.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviyatini mediata'lim texnologiyasi vositasida shakllantirish ishida o'qituvchi-murabbiylar uchun bir necha talablar quyiladi. Bunday talablarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarga kompyuterda saboq berish haftada ikki martadan oshmasligi kerak;
- 2) kompyuterda saboq berish 20-25 minutdan oshmasligi lozim;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarni dars jarayonida fikrlash va so'zlab berishiga erishish;
- 4) boshlang'ich sinf o'quvchilarning kompyuterda mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish va hokazo.

Kompyuter texnologiyalari aynan mazkur maqsadlarda tezkor erishish imkoniyatlariga ega. Bunda asosiy masala mutaxassislar yordamida tuza olgan o'quv dasturi va materiallariga ega bo'lishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviyat tushunchasini shakllantirishda "ma'naviyat" tushunchasiga berilgan nufuzli tarifdan kelib chiqish kerak. Shunga ko'ra, ma'naviyat - insonni ruhan poklaydigan, qalban ulug'laydigan va ichki dunyosini butun qiladigan beqiyos kuchdir; uning natijasida inson Iroda, e'tikod vijdon kabi sifatlarga ega bo'ladi. Bu o'rinda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyat tushunchalarini tarkib toptirishning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongi, dunyoqarashini va axloqini to'g'ri shakllantirish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviyat tushunchalarini shakllantirishning mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhini o'stirish,





qalbini pok tuyg'ular asosida ulg'aytirish va ichki dunyosini (xotirasini) mustahkamlashdan iborat;

3) boshlang'ich sinflarda manaviyat tushunchalarini shakllantirish vazifasi boshlang'ich sinf o'quvchilarning Iroda, e'tiqod va vijdon kabi axloqiy sifatlarini tarkib toptirish.

Ma'naviyat tushunchasiga berilgan ta'rifda bu masala "ta'lim va tarbiyaning muhim ko'rinishi" ekanligi takidlanib, uning mazmunini "yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuygularini tarbiyalashga qaratilgan usullar, harakatlar majmui" tashkil qilishi uqtiriladi. Bunday ezgu g'oyalarning asosiylari milliy g'oyamizda ifodalangan bo'lib, ular yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligidan iboratdir.

Bu ma'no – mazmundan shunday ta'rifni shakllantirish mumkin: ma'naviy tarbiya bu olijanob maqsad – muddaolarini bajarar ekan, uning ma'no – mazmunini ham o'ziga xos hisoblanadi. Shu sababli ma'naviy tarbiya ezgulik va yovuzlikni farqlash, mustaqil fikrlash va ma'naviy axloqiy faol bo'lish ko'nikmalarini shaxsda shakllantirishni nazarda tutadi. Ma'naviy tarbiyaga quyidagi asosiy xususiyatlar xos bo'ladi:

1) ta'lim berish va tajribani uzatish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy salohiyatini o'stirish;

2) milliy an'analar, urf – odatlar va qadriyatlar asosida o'quvchilarning axloqini rivojlantirish;

3) mo'tadil tafakkur va sog'lom g'oyalarga tayanib boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini hosil qilish;

4) turli tadbirlar va tarbiyaviy ishlar orqali o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash.



Bu xususiyatlar tarbiyalanuvchini muayyan xalqning tipik vakili sifatida voyaga etkazishi bilan ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilar ma'naviy tarbiya "insonni dunyoqarashini maqsadli o'zgartiruvchi jarayon" ekanligini ta'kidlab, unda shaxsning quyidagi mezonlariga ko'ra ma'naviy tarbiyalanganligini aniqlash mumkinligini qayd etishadi:

- o'zgalarga ezgu mmosabatda bo'lish (guruhda, jamoada va butun jamiyatda);
- har bir xatti – harakatni baholashda haqiqatga suyanish;
- tarbiyada go'zallik kategoriyasini birlamchi bilish.

Zero, aynan ezgulik, haqiqat va go'zallik ma'naviy tarbiyaning asosi bo'la oladi. Ma'naviy tarbiya "ijtimoiy – tarixiy, qonuniy va ob'ektiv jarayon sifatida" boshlang'ich ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilarni har tomonlama etuk shaxslar qilib tarbiyalashda muhim asos hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarda ma'naviyat tushunchasining tarkib topishida quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ma'naviyat sohasidagi yangiliklar va axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongi, dunyoqarashi va axloqini milliy g'oya asosida shakllantirish;
- ma'naviyat tushunchalarini shakllantirish uchun optimal metodlardan foydalanish;
- ma'naviyat tushunchalarini shakllantirish ishining samaradorligini baholay olish.


Boshlang'ich sinf o'quvchilarini irodali, e'tiqodli va vijdonli bo'lishga odatlantirish davr talablari bo'lib, uning natijasida 7-11 yoshli o'quvchilarning mo'tadil xarakterli, etuk tabiatli va barkamol xulq-atvorli bo'lib voyaga etishiga



erishiladi. Buning uchun ularning quyidagilarga odatlanishiga alohida e'tibor berish kerak:

- ezgulik va yaxshilikka intilish, yomondan hazar qilish;
- halol bo'lish va jamoani sevish;
- to'g'ri so'zlash va rost aytish;
- yordamga tayyor turish va harakatchan bo'lish.

Ma'lum bo'ladiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviyatini tarkib toptirish tushuntirish, shakllantirish va odatlantirish orqali amalga oshiriladi.



2-shakl. Boshlang'ich sinf o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish vazifalari.

Bu jarayonda tushuntirish, shakllantirish va odatlantirish tushunchalariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bunda:

1. Tushuntirishda dars mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarning ongiga ma'naviy tarbiya singdirib boriladi. Ezgulik, yaxshilik, odamiylik, do'stlik, tinchlik, Vatan kabi tushunchalarning mazmuni o'quvchilarga tushuntirilishi zarur. Bunda, davlat ramzlari - bayroq, gerb



va madhiya to'g'risida o'quvchilar keng tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Voshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi savollarga aniq javob bera olishi kerak:

- 1) bayroqning ranglari, oy va yulduzlar qanday ma'noni anglatadi?
- 2) davlat madhiyasining ma'no-mazmuni nimalardan iborat?
- 3) gerb tasviri ma'nolari nimalarni bildiradi?

Boshlang'ich sinf o'quvchilar tabiatan qiziquvchan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilar bergan har savolga to'g'ri, aniq va lo'nda javob beritshi kerak. Buning uchun quyidagi me'yorlarga amal qilish taqozo etiladi:

- tushuntirishda o'quvchiga tushunarli bo'lgan so'z va iboralardan foydalanitsh;
- so'zlagan obrazni va misollar bilan ifodalash;
- imkon qadar Real sharoit, imkoniyat va vaziyatdan kelib chiqish;
- o'quvchilarni faollashtirish.

Pedagog olimlar tushuntirishning ilmiy va rasional shakllarini farqlab ko'rsatishadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni ma'naviy tarbilashda har ikki shakldan xam foydalanishi kerak bo'ladi. Unga ko'ra, tushunchalar aniq izohlanishi (ilmiy tushuntirish) va ular misollar bilan ifodalanishi (rasional tushuntirish) kerak. Masalan, Vatan tushunchasini tushuntirishda Vatan xaritasi yoki obod joylar tasvirlaridan albatta foydalanish lozim. Hozirda ham tushuntirish ammaviyligi bilan ajralib turadi.

2. Shakllantirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongi va dunyoqarashi shakllantirishi ong "aql va tafakkurni ifoda etadi" dunyoqarash esa "olam va odam haqida bir butun qarashlar, g'oyalar tizimi"ga ega bo'lishdir demak, bu o'rinda bilim berish asosiy masala hisoblanadi.



Bilim - boshlang'ich sinflarda turli fanlar orqali o'quvchilarda aql, tafakkur va qarashni shakllantirish manbai hisoblanadi. Ma'naviy tarbiyada bilish quyidagilarni qamrab oladi:

- o'zlikni anglash va boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga olam hamda odam haqida bilim berish;

-boshlang'ich sinf o'quvchilarda mustaqil fikrlash, anglash, tushunish tuyg'ularini tarkib toptirish;

-o'quvchilarning tabiiy layoqati, qobiliyati va istedodi rivojlanishini yo'lga qo'yish.

Voshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviyatini tarkib toptirishda shakllantirish quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

-o'quvchilar ongida milliy g'oyaga asoslangan ma'naviy tushuncha, bilim va g'oyalarni hosil qilish;

-o'quvchilar dunyoqarashini sog'lom g'oyalar, ideallar, fikrlar va mushohadalar asosida shakllantirishni yo'lga qo'yish;

-o'quvchilarda bilim olish immunitetini paydo qilish;

-o'quvchilarning aqlini o'stirish.

3) odatlantirish bu boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish vositasida 7-11 yoshli o'quvchilarning axloqi shakllantiriladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarning xarakteri, tabiati va xulq-atvorini ma'naviy mezonlar, fazilatlar hamda sifatlar asosida yo'naltirishiga alohida etibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Votshlang'ich sinflarda ma'naviy tarbiyani tashkil qilishda odatlantirish quyidagilarni nazarda tutadi:



- 1) o'quvchilar xarakterini oqilana rivojlantirish;
- 2) o'quvchilar tabiatida insoniylikni shakllantirish ;
- 3) o'quvchilar xulq-atvorida muhim ma'naviy sifatlarni tarkib toptirish.

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi quyidagilarga rioya qilish shart:

-boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiy, ma'naviy va jismoniy xususiyatlarini hisobga olish;

- boshlang'ich ta'limga qo'yiladigan davlat ta'lim standartlarini chuqur bilish;

-ma'naviyat asoslaridan etarli darajada xabardor bo'lish; -boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishni tashkil qilish.

Tarbiyaviy ishlarda ma'naviyatni shakllantirish didaktik o'yinlar, musobaqalar, ko'riklar va tanlovlar o'tkazishga asoslanishi kerak. Shunda o'quvchilarning harakatchanligi oshadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish vazifalari quyidagilarga yuklanadi:

- 1) o'qituvchiga; 2) maktab jamoasiga; 3) ota-onalarga; 4) mahallaga.

Bu ishtirokchilarning vazifalari umumiy xarakterga ega bo'lsa-da, lekin ular o'zaro farqlanadi. Misol uchun, o'qituvchi ma'naviyatni shakllantiradi, maktab jamoasi yordam beradi va ota-onalar ko'maklashadi. Shu tariqa boshlang'ich sinf o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish jamiyat vazifasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar: birinchidan, boshlang'ich sinflarda manaviyat tushunchalarini shakllantirish zaruriyati manaviy tarbiya jarayonini kuchaytirish va bu jarayonda amaliy samaradorlikning



kengaytirish bilan belgilanadi; ikkinchidan, boshlang'ich sinflarda ma'naviyat tushunchalarining mazmunini 7-11 yoshli bolalarning ma'naviy ongi, ma'naviy dunyoqarashi va axloqini sog'lom shakllantirish tashkil qiladi; uchinchidan, boshlang'ich sinflarda ma'naviyat tushunchalarini shakllantirishda ilmiy, uslubiy va konkretlik tamoyillariga asoslanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar royxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi arori. 2021 yil 26 mart, PQ-5040-son

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 3261 sonli qarori. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil, 11 sentyabr, № 181 (6875).

3. Mirziyoev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi".-T.-2021.-281b

4. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 94 b.

5. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.

6. Maxmudova N.Dj. "Avesto"da ta'limiy-axloqiy qarashlar. – Ped.fan.nomz. ... dis. Avtoref. – T.: O'zPFITI, 2005. – 23 b

7. Sheranova M. B. Mediatalim texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf oquvchilarining manaviy tarbiyasini shakllantirish. Ped, fan. nom. dissert Jizzax , 2022.

8. Sheranova Maryam Bozorboevna. The use of media education technology in the spiritual education of primary school pupils. ESEARCH&DEVELOPMENT (IJRD) Monthle, Peer Reviewed(Refereed) & indexed International journal Volume-5, Issue-5, may 2020 Pp-383-385

9. Sheranova M.B. The Importance of Interactive Methods in Education. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No.